



## BOZOR INFRATUZILMASIDA IQTISODIYOT

Radjabov Azimjon Adizovich

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

"Moliya" fakulteti 1-bosqIch talabasi MMT-81 guruh

+998 33 704-03-05

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19185409>

### ARTICLE INFO

Received: 1<sup>st</sup> March 2026

Accepted: 5<sup>th</sup> March 2026

Published: 20<sup>th</sup> March 2026

### KEYWORDS

*Bozor infratuzilmasi, bank tizimi, moliya bozori, raqamli transformatsiya, fintech, investitsiya, moliyaviy savodxonlik, monetar siyosat.*

### ABSTRACT

*Ushbu ishda bozor infratuzilmasining mohiyati, uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni va tarkibiy elementlari atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotda banklar, birjalar va sug'urta kompaniyalarining bozor mexanizmidagi funksiyalari yoritilgan. Alohida e'tibor bank tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni (fintech) joriy etish va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalalariga qaratilgan. Shuningdek, bozor infratuzilmasini samarali shakllantirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.*

### Kirish

Bozor infratuzilmasi har qanday mamlakat iqtisodiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. U iqtisodiy tizimning samarali faoliyat yuritishiga, resurslarning oqilona taqsimlanishiga, ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda bozor infratuzilmasining rivojlanishi har bir davlat uchun dolzarb masala bo'lib, u mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu bois, bozor infratuzilmasini tashkil etuvchi asosiy elementlar — banklar, birjalar, sug'urta kompaniyalari hamda savdo tarmoqlarining roli beqiyosdir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonini boshlab berdi. Bu jarayonda bozor infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bozor infratuzilmasi ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish, tovar va xizmatlarning erkin harakatini ta'minlash, moliyaviy resurslar aylanishini boshqarish kabi vazifalarni bajaradi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, O'zbekiston iqtisodiyotining zamonaviy bosqichida bozor infratuzilmasining barcha tarmoqlarida hali ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud.

Maqolaning maqsadi — bozor infratuzilmasining mohiyatini, uning asosiy turlarini, iqtisodiyotdagi o'rnini o'rganish va mavjud kamchiliklarga oddiy, amaliy yechimlar taklif qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- bozor infratuzilmasining iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini aniqlash;
- banklar, birjalar, sug'urta kompaniyalari hamda savdo tarmoqlarining asosiy faoliyat yo'nalishlarini tahlil qilish;
- har bir tarmoqda mavjud muammolarni o'rganish;

– ushbu muammolarga mos taklif va yechimlarni ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasida shakllanayotgan bozor infratuzilmasi tizimi tanlandi. Predmet esa — mazkur tizimda faoliyat yurituvchi muhim sub’yektlarning o‘zaro aloqalari, ularning iqtisodiyotdagi o‘rni va rivojlanish istiqbollari hisoblanadi.

Bozor infratuzilmasining har bir tarkibiy qismi o‘ziga xos ahamiyatga ega. Masalan, banklar iqtisodiyotning “qon tomiri” bo‘lib, moliyaviy resurslarning aylanishini ta‘minlaydi. Birjalar esa tovar va qimmatli qog‘ozlar savdosini tashkil etuvchi muhim maydondir. Sug‘urta kompaniyalari iqtisodiy barqarorlik va xavfsizlikni kafolatlovchi mexanizm sifatida xizmat qiladi. Savdo tarmoqlari esa ishlab chiqaruvchi va iste‘molchini bog‘lovchi eng muhim halqadir. Ularning samarali ishlashi natijasida iqtisodiyotda raqobat kuchayadi, tovarlar sifati oshadi va xizmatlar doirasi kengayadi.

Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu sohalarda hali ham tizimli muammolar mavjud. Masalan, ba‘zi banklarda kredit siyosati aholining real imkoniyatlariga to‘liq mos emas; birjalarda axborot tizimining yetarlicha ochiqligi ta‘minlanmagan; sug‘urta kompaniyalarida xizmat sifati past; savdo tarmoqlarida esa narxlarning barqarorligi saqlanmaydi. Shu boisdan, maqolada har bir yo‘nalish alohida ko‘rib chiqilib, mavjud kamchiliklarga soddalashgan, lekin real yechimlar taklif etiladi.

Ushbu ishning tuzilmasi quyidagicha: kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalar yoritiladi; asosiy qismda bozor infratuzilmasining to‘rtta asosiy tarkibiy qismi — banklar, birjalar, sug‘urta kompaniyalari va savdo tarmoqlari tahlil qilinadi; xulosa qismida esa umumiy natijalar chiqarilib, muammolarni hal etish bo‘yicha takliflar beriladi.

### **Bozor infratuzilmasining nazariy asoslari**

Bozor infratuzilmasining nazariy asoslarini tushunish uchun, avvalo, “bozor” tushunchasining o‘zi haqida to‘xtalish zarur. Bozor — bu tovarlar, xizmatlar, moliyaviy resurslar, mehnat va boshqa iqtisodiy qadriyatlarning almashinuvi amalga oshadigan iqtisodiy tizimdir. Bozor infratuzilmasi esa ushbu tizimning normal faoliyat yuritishini ta‘minlovchi, uni qo‘llab-quvvatlovchi va tartibga soluvchi tashkiliy hamda institutsional mexanizmlar majmuasidir. Ya‘ni, infratuzilma bo‘lmasa, bozor iqtisodiyoti to‘liq ...

Bozor infratuzilmasining nazariy asoslari iqtisodiyot fanining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodchi olimlar bu tushunchani turlicha talqin qilganlar. Masalan, ayrim manbalarda infratuzilma iqtisodiyotning “tayanch mexanizmi” deb ataladi, ya‘ni ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni tashkil etuvchi vositachi tizim sifatida ko‘riladi. Boshqa manbalarda esa u “bozorni harakatga keltiruvchi muhim omillar majmui” deb ta‘riflanadi. Har ikki yondashuvni birlasht...

Bozor infratuzilmasi tarkibiga bir qator muhim sub’yektlar kiradi: banklar, birjalar, sug‘urta kompaniyalari, kredit tashkilotlari, moliya bozorlari, lizing firmalari, axborot markazlari va savdo tarmoqlari. Ularning har biri iqtisodiy tizimda muayyan vazifani bajaradi. Masalan, banklar moliyaviy resurslarni yig‘ish va taqsimlashni amalga oshiradi, birjalar tovar va qimmatli qog‘ozlar savdosini tashkil etadi, sug‘urta kompaniyalari esa iqtisodiy xavflarni kamaytiradi. Shunday qilib, bozor infratuzilmasi ...

Bozor infratuzilmasining asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar o'rtasida aloqalarni ta'minlash;
- iqtisodiy resurslarning erkin harakatini tashkil qilish;
- moliyaviy tizimning barqarorligini ta'minlash;
- tovarlar va xizmatlar savdosida raqobat muhitini shakllantirish;
- axborot almashinuvi va shaffoflikni oshirish;
- iqtisodiyotda xavflarni kamaytirish va barqarorlikni mustahkamlash.

Bozor infratuzilmasi iqtisodiy tizimning "asabi tizimi" deb ham atash mumkin. Chunki u orqali iqtisodiyotning barcha bo'g'inlari o'zaro bog'lanadi. Agar infratuzilma zaif bo'lsa, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari ham samarali ishlay olmaydi. Shu boisdan, har qanday mamlakat bozor iqtisodiyotiga o'tayotganda, birinchi navbatda infratuzilmani rivojlantirishga e'tibor qaratadi.

Bozor infratuzilmasining shakllanishi nazariy jihatdan bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Dastlab, davlat tomonidan iqtisodiy islohotlar amalga oshiriladi, keyin esa bozor mexanizmlari bosqichma-bosqich joriy etiladi. O'zbekiston misolida ham shuni kuzatish mumkin. Mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiy tizimda markazlashgan boshqaruvdan bozor munosabatlariga o'tish davri bo'ldi. Shu jarayonda birinchi navbatda tijorat banklari, valyuta birjalari, bir nechta sug'urta kompaniyalari va yirik sa...

Hozirgi bosqichda esa bozor infratuzilmasining barcha tarmoqlari raqamli texnologiyalar asosida rivojlanmoqda. Internet-banking, onlayn birjalar, elektron savdo platformalari, onlayn sug'urta tizimlari va boshqa ko'plab raqamli xizmatlar infratuzilmani yangi bosqichga olib chiqmoqda. Biroq bu jarayon bilan birga yangi muammolar ham yuzaga kelmoqda. Masalan, kiberxavfsizlik masalalari, axborot ishonchiligi, firibgarlik holatlari, moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi kabi muammolar infratuzilmani...

Nazariy jihatdan qaraganda, bozor infratuzilmasining muvaffaqiyatli ishlashi uchun uchta muhim shart zarur:

1. Rivojlangan moliya tizimi — bu orqali korxonalar investitsiya va kredit olish imkoniyatiga ega bo'ladi.
2. Axborot tizimining ochiqligi — barcha bozor ishtirokchilari uchun teng sharoit yaratadi.
3. Raqobat muhiti — monopoliyalarning oldini oladi va innovatsion rivojlanishni rag'batlantiradi.

Agar bu uch shart to'liq bajarilmasa, bozor infratuzilmasi turg'unlikka uchraydi va iqtisodiy o'sish sekinlashadi. Shuning uchun davlat tomonidan infratuzilma siyosati doimiy nazorat ostida bo'lishi kerak. Shu maqsadda, O'zbekistonda so'nggi yillarda "Bank tizimini isloh qilish strategiyasi", "Kapital bozorini rivojlantirish dasturi", "Sug'urta faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari" kabi hujjatlar qabul qilingan. Ushbu hujjatlar infratuzilmani zamonaviy talablarga moslashtirishga qaratilgan.

Bozor infratuzilmasining nazariy asoslarini chuqur tahlil qilgan iqtisodchi olimlar uni ikki yo'nalishga ajratadi: moddiy infratuzilma va nomoddiy infratuzilma. Moddiy infratuzilma — bu savdo markazlari, bank binolari, birja inshootlari kabi real ob'ektlardir. Nomoddiy infratuzilma esa qonunlar, me'yoriy hujjatlar, axborot tizimlari, malakali kadrlar va iqtisodiy madaniyatni o'z ichiga oladi. Shu jihatdan qaraganda, infratuzilmaning faqat moddiy emas, balki ma'naviy asoslari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bozor infratuzilmasining samarali ishlashi uchun malakali kadrlar tayyorlash ham muhim omillardandir. Chunki har bir sohada — bank tizimida, birjalarda, sug'urta kompaniyalarida

yoki savdo tarmoqlarida faoliyat yurituvchi mutaxassislar o'z ishini puxta bilmasa, tizimda xatoliklar paydo bo'ladi. Shu sababli oliy o'quv yurtlarida iqtisodiy yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalarga infratuzilma tizimi bo'yicha chuqur bilim berish dolzarbdir.

Bozor infratuzilmasining nazariy jihatdan o'rganilishi shuni ko'rsatadiki, infratuzilma iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biridir. Rivojlangan infratuzilmasiz ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish yoki investitsiyalarni jalb etish mushkul bo'ladi. Shu sababli, O'zbekiston sharoitida bu sohani rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, bozor infratuzilmasi faqat iqtisodiy omillar bilan emas, balki siyosiy va ijtimoiy omillar bilan ham chambarchas bog'liq. Siyosiy barqarorlik, qonun ustuvorligi, korrupsiyaga qarshi kurashish kabi omillar infratuzilmaning samarali ishlashini belgilaydi. Shu sababli, infratuzilma siyosatini shakllantirishda kompleks yondashuv zarur.

Xulosa qilib aytganda, bozor infratuzilmasining nazariy asoslari shundan iboratki, u iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini birlashtiruvchi, resurslarni oqilona taqsimlovchi, raqobat muhitini yaratib beruvchi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi tizimdir. O'zbekiston uchun bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar ijobiy natijalar bermoqda, ammo infratuzilmaning ayrim jihatlarni chuqurroq o'rganish va takomillashtirish zarur. Shu jihatdan, bozor infratuzilmasining nazariy asoslarini bilish, iqtisodiy munosabatlarni ta'minlashga vs tartibga solishga yordam beradi.

#### **Bank tizimi — bozor infratuzilmasining markaziy elementi**

Bank tizimi har qanday bozor iqtisodiyotining yuragi, uning harakatga keltiruvchi kuchi hisoblanadi. Chunki moliyaviy resurslar, kredit, to'lov va investitsiya oqimlari aynan banklar orqali boshqariladi. Shuning uchun ham bank tizimi bozor infratuzilmasining markaziy elementi deb qaraladi. Agar bank tizimi barqaror, samarali va ishonchli ishlasa, butun iqtisodiyot ham barqaror rivojlanadi. Aksincha, bank tizimidagi beqarorlik yoki ishonchsizlik mamlakat iqtisodiy tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bank tizimi mohiyatan ikki pog'onali tuzilishga ega: markaziy bank va tijorat banklari. Markaziy bank mamlakatning pul-kredit siyosatini amalga oshiruvchi, milliy valyuta barqarorligini ta'minlovchi hamda barcha bank faoliyatini nazorat qiluvchi asosiy muassasadir. Tijorat banklari esa korxonalar, tashkilotlar va aholiga moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi iqtisodiy sub'yektlar bo'lib, ular orqali jamiyatdagi pul aylanishi amalga oshadi. Shu sababli, bank tizimi davlat va xususiy sektor o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning bosh bog'lovchi bo'g'ini sifatida namoyon bo'ladi.

Bozor infratuzilmasida banklarning markaziy o'rni shundan iboratki, ular moliyaviy resurslarning qayta taqsimlanishini amalga oshiradi. Ya'ni, jamg'arma shaklida yig'ilgan mablag'lar iqtisodiyotning faol tarmoqlariga yo'naltiriladi. Bu esa ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, eksport salohiyatini oshirish va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish imkonini beradi. Shu tariqa, bank tizimi iqtisodiy o'sishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekiston bank tizimi 30 dan ortiq tijorat banklarini, shuningdek, bir nechta ixtisoslashgan moliyaviy institutlarni o'z ichiga oladi. Ular orasida davlat ulushi yuqori bo'lgan banklar, xususiy tijorat banklari va xorijiy kapital ishtirokidagi banklar mavjud. Bu xilma-xillik moliya bozorining raqobatbardoshligini oshiradi va mijozlar uchun xizmatlar sifatini yaxshilaydi. Misol uchun, "Asaka bank", "Ipoteka bank", "Xalq banki", "TBC bank" va "Anor

bank” kabi moliyaviy muassasalar o‘z yo‘nalishida faol ishlamoqda.

Bank tizimi bozor infratuzilmasining markazida turishining yana bir sababi — bu uning to‘lov tizimidagi o‘rni. Zamonaviy iqtisodiyotda barcha to‘lovlar, savdo operatsiyalari, xalqaro hisob-kitoblar va hatto davlat byudjeti bilan bog‘liq operatsiyalar banklar orqali amalga oshadi. Shuning uchun bank tizimining uzluksiz ishlashi butun iqtisodiyotning barqarorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har qanday texnik nosozlik yoki moliyaviy inqiroz butun iqtisodiy tizimga ta‘sir qilishi mumkin.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar rivojlanishi bank tizimini tubdan o‘zgartirmoqda. Internet-banking, mobil ilovalar, plastik kartalar, QR-to‘lov tizimlari kabi innovatsiyalar aholiga qulaylik yaratmoqda. Shu bilan birga, banklarning raqamli transformatsiyasi ularning bozor infratuzilmasidagi o‘rnini yanada kuchaytirmoqda. Chunki raqamli xizmatlar orqali nafaqat to‘lovlar, balki kredit, depozit, valyuta operatsiyalari ham onlayn tarzda amalga oshirilmogda. Bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, vaqt va resurslarni tejaydi.

Bank tizimining iqtisodiy ahamiyatini yanada chuqurroq tahlil qiladigan bo‘lsak, uning asosiy funksiyalarini quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Jamg‘armalarni safarbar qilish — aholining ortiqcha mablag‘larini yig‘ish va iqtisodiyotga yo‘naltirish.
2. Kreditlash — korxonalar va jismoniy shaxslarga ishlab chiqarish yoki iste‘mol uchun qarz berish.
3. Hisob-kitoblarni amalga oshirish — to‘lov tizimini tashkil qilish, pul aylanishini ta‘minlash.
4. Investitsion faoliyat — kapitalni samarali loyihalarga yo‘naltirish.
5. Moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash — risklarni boshqarish, sug‘urta va kafolat tizimlarini qo‘llab-quvvatlash.

Bu funksiyalarni samarali bajarish uchun bank tizimi mustahkam institutsional asosga ega bo‘lishi zarur. Ya‘ni, qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar, Markaziy bank siyosati va moliyaviy nazorat mexanizmlari mukammal ishlashi kerak. O‘zbekistonda “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonun, “Markaziy bank to‘g‘risida”gi qonun hamda “To‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi qonunlar ushbu yo‘nalishda muhim huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, bank tizimi hali ham bir qator muammolarga duch kelmoqda. Ulardan eng muhimlari:

- kredit resurslarining yetishmasligi;
- yuqori foiz stavkalari;
- aholining moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi;
- raqamli xizmatlardan foydalanishdagi texnik to‘siqlar;
- ayrim banklarda boshqaruv tizimining samarasizligi.

Oddiy talaba sifatida shuni aytish mumkinki, bu muammolarni hal etish uchun birinchi navbatda aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini oshirish zarur. Ko‘p hollarda odamlar o‘z mablag‘larini banklarda saqlashdan qo‘rqadilar yoki naqd pul bilan ishlashni afzal ko‘radilar. Bu holat iqtisodiyotdagi rasmiy pul aylanmasini cheklaydi. Shuning uchun banklar aholiga yanada qulay va ishonchli xizmatlar taqdim etishi, shaffoflikni kuchaytirishi kerak.

Ikkinchidan, yoshlar o‘rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish dolzarbdir. Maktab va oliy o‘quv yurtlarida “bank ishi asoslari”, “shaxsiy moliyani boshqarish” kabi fanlarni o‘qitish foydali bo‘lardir. Bu orqali yoshlar o‘z mablag‘larini to‘g‘ri boshqarishni, kredit va investitsiya madaniyatini o‘rganadilar.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali bank tizimini modernizatsiya qilish zarur. Bugungi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda "fintech" kompaniyalari banklar bilan raqobatlashmoqda. O'zbekistonda ham raqamli moliya ekotizimini rivojlantirish, onlayn kreditlash, elektron hamyonlar va blokcheyn texnologiyasini tatbiq etish orqali bank tizimini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

To'rtinchidan, banklar o'z faoliyatida ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishi lozim. Ya'ni, kredit siyosatida kichik biznes va startaplarni qo'llab-quvvatlash, ekologik loyihalarga sarmoya kiritish, yoshlar va talabalar uchun imtiyozli xizmatlar yaratish muhim. Shu orqali bank tizimi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy infratuzilmaning ham ajralmas qismiga aylanadi.

O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar ijobiy natijalar bermoqda. Xususan, bank sektorini liberallashtirish, xorijiy investorlarni jalb etish, valyuta bozorini erkinlashtirish va bank xizmatlari turlarini kengaytirish yo'nalishida katta ishlar amalga oshirildi. Bu o'z navbatida raqobatni kuchaytirdi va xizmatlar sifatini oshirdi. Biroq hali ham rivojlanish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Shuningdek, Markaziy bankning asosiy vazifasi — pul-kredit siyosatini samarali yuritish va inflyatsiyani nazorat qilishdir. Oxirgi yillarda inflyatsiya darajasi pasaygani, milliy valyuta barqarorligi saqlanib qolayotgani bu boradagi islohotlarning samarali natijasidir. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik kuchaygan, bank tizimining kapital bazasi mustahkamlanyapti.

Talaba sifatida fikr bildiradigan bo'lsam, kelajakda bank tizimini yanada samarali qilish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Har bir hududda yoshlar uchun "moliyaviy bilimlar markazlari" tashkil etish;
2. Talabalar uchun maxsus "ta'lim kreditlari" dasturini kengaytirish;
3. Bank xodimlari uchun xizmat madaniyati bo'yicha muntazam treninglar o'tkazish;
4. Mahalliy startaplarga investitsiya yo'naltiruvchi "innovatsion fondlar" tashkil etish;
5. Bank tizimida raqamli xavfsizlikni mustahkamlash.

Xulosa qilib aytganda, bank tizimi bozor infratuzilmasining markazida turuvchi, iqtisodiy barqarorlik va o'sishni ta'minlovchi eng muhim mexanizmdir. Uning samarali ishlashi mamlakat iqtisodiyotining sog'lom rivojlanishini kafolatlaydi. Shu bois, bank tizimini rivojlantirish, raqamlashtirish va aholining ishonchini oshirish bugungi kunda O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega. Banklar iqtisodiy hayotning yuragi bo'lib, ularning har bir zarbi butun mamlakat iqtisodiy ritmini belgilaydi.

### **Birjalar faoliyati va ularning bozor infratuzilmasidagi roli**

Bozor infratuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu — birjalardir.. Birjalar bozor iqtisodiyoti tizimida tovarlar, xizmatlar, qimmatli qog'ozlar, valyutalar va boshqa resurslarning erkin muomalasini ta'minlaydigan asosiy iqtisodiy institut sifatida faoliyat yuritadi. Ular iqtisodiy tizimning barqaror ishlashida, narxlarning shakllanishida, talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda, shuningdek, iqtisodiy axborotlarning erkin almashinuvida beqiyos rol o'ynaydi. Birja so'zi fransuzcha "bourse" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, dastlab savdogarlar o'zaro bitim tuzish uchun to'planadigan joyni bildirgan. Bugungi kunda esa birja — bu maxsus tashkil etilgan, qat'iy qoidalar asosida faoliyat yuritadigan savdo maydoni bo'lib, unda bitimlar brokerlar va dilerlar orqali amalga oshiriladi. Birjalar iqtisodiy munosabatlarda shaffoflikni, ishonchni va raqobatni ta'minlash uchun muhim vosita

hisoblanadi. Birjalar turiga qarab bir necha asosiy yo'nalishga bo'linadi: tovar birjasi, fond birjasi, valyuta birjasi va mehnat birjasi. Har birining iqtisodiy tizimdagi vazifasi o'ziga xos.

- **Tovar birjasi** xom ashyo, oziq-ovqat, yoqilg'i va boshqa tovarlarning savdosini amalga oshiradi.
- **Fond birjasi** esa aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil etadi.
- **Valyuta birjasi** turli mamlakat valyutalarining ayirboshlanish jarayonini boshqaradi.
- **Mehnat birjasi** esa ishchi kuchi bozorida talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni saqlashda yordam beradi.

Bozor infratuzilmasida birjalarning roli bir nechta yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, birjalar iqtisodiy axborot markazi sifatida xizmat qiladi. Ya'ni ular orqali tovarlar va xizmatlarning narxlari, talab va taklif hajmi, bitimlar soni haqida ochiq ma'lumot olish mumkin. Bu ma'lumotlar ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va investorlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, birjalar kapitalni samarali taqsimlashga yordam beradi. Investorlar o'z mablag'larini eng foydali yo'nalishlarga yo'naltirish imkoniga ega bo'ladilar. Uchinchidan, birjalar iqtisodiyotdagi barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Narxlarning o'zgarishi, talab va taklifdagi siljishlar birja orqali tezda aniqlanadi, bu esa hukumat va iqtisodiy sub'yektlarga tegishli chora ko'rish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasida birja tizimi mustaqillik yillarida jadal rivojlandi. 1994-yilda tashkil etilgan "Toshkent Respublika tovar-xom ashyo birjasi" (UZEX) bugungi kunda mamlakatdagi eng yirik savdo maydonlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, "Toshkent" Respublika fond birjasi, O'zbekiston valyuta birjasi va boshqa mintaqaviy birjalar ham faoliyat yuritmoqda. Tovar birjasi orqali ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini erkin sotish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa raqobat muhitini kuchaytiradi. Fond birjasi esa korxonalariga qo'shimcha kapital jalb etish imkonini beradi. Shu tarzda, birja tizimi bozor iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylanadi. O'zbekiston birjalari iqtisodiyotning ochiqligini oshirishda, investitsiya muhitini yaxshilashda va xalqaro hamkorlikni kengaytirishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, fond birjalari orqali xorijiy investorlar mamlakat iqtisodiyotiga sarmoya kiritish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Biroq birja tizimining rivojlanishida ayrim muammolar ham mavjud. Ulardan biri — iqtisodiy savodxonlik darajasining yetarli emasligidir. Ko'plab kichik tadbirkorlar yoki ishlab chiqaruvchilar birja mexanizmini to'liq tushunmaydilar, natijada ularning faol ishtiroki cheklanib qoladi. Ikkinchi muammo — birjalarda texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi. Ba'zi hollarda savdo jarayonlari hanuzgacha qo'lda amalga oshiriladi, bu esa tezlik va shaffoflikni pasaytiradi. Shuningdek, birja faoliyati to'g'risida keng jamoatchilikning xabardorligi ham past darajada. Yana bir masala — birjalarda raqobatni cheklovchi ayrim holatlar mavjudligi. Ba'zan ayrim yirik ishtirokchilar narxlarni sun'iy ravishda o'zgartirish orqali foyda ko'rishga harakat qiladilar. Bu esa bozorda adolatli raqobat muhitini buzadi. Oddiy talaba fikricha, birja tizimini yanada rivojlantirish uchun bir nechta amaliy choralarni ko'rish mumkin. Birinchidan, ta'lim tizimida iqtisodiyot va birja faoliyatiga oid fanlarni kuchaytirish zarur. Bu yoshlarning moliyaviy savodxonligini oshiradi va kelajakda faol investorlar, iqtisodchilar yetishib chiqishiga zamin yaratadi. Ikkinchidan, birja faoliyatini raqamlashtirish va onlayn savdo tizimlarini keng joriy etish lozim. Masalan, AQSh, Yaponiya yoki Xitoy tajribasida elektron birjalar orqali har sekundda minglab bitimlar amalga oshiriladi. O'zbekistonda ham "UZEX" elektron platformasi orqali bu yo'nalishda ijobiy natijalar ko'zga tashlanmoqda. Uchinchidan, birja faoliyatini ommalashtirish uchun axborot kompaniyalarini o'tkazish foydali bo'ladi. Televizion ko'rsatuvlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali birja faoliyati

haqida oddiy tilda tushuntirishlar berilsa, ko'plab yoshlar bu tizimga qiziqadi. To'rtinchidan, birja axborot tizimining shaffofligini oshirish kerak. Har bir bitim haqida ochiq ma'lumot, statistik tahlil va narx dinamikasi muntazam e'lon qilinib borilsa, investorlar uchun ishonch ortadi. Birjalar — bu faqat savdo maydoni emas, balki butun iqtisodiyotning yuragi, bozor mexanizmining eng muhim qismlaridan biridir. Ular narxlarni shakllantiradi, kapitalni taqsimlaydi, iqtisodiy axborotni yetkazadi va raqobat muhitini yaratadi. O'zbekiston uchun birja tizimini yanada rivojlantirish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish va raqamlashtirish iqtisodiy o'sishning muhim garovidir. Birjalar orqali kichik biznes sub'yektlari ham keng imkoniyatlarga ega bo'lib, mamlakat iqtisodiy mustaqilligini yanada mustahkamlashadi. Shunday qilib, birjalar faoliyatining takomillashtirilishi nafaqat iqtisodiyot barqarorligini ta'minlaydi, balki aholining iqtisodiy madaniyatini ham oshiradi. Har bir yosh, xususan, talaba bu tizimni chuqur o'rganib, kelajakda uni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shmog'i lozim. Xulosa qilib aytganda, birjalar iqtisodiyotning muhim tayanish nuqtasidir. Ular tovar va kapital bozorini uyg'unlashtiradi, ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilarni bog'laydi, shaffof savdo muhiti yaratadi. O'zbekiston uchun birja tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish, xalqaro tajribalarni joriy etish, hamda yosh avlodning iqtisodiy savodxonligini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Birjalar rivoji nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki ijtimoiy adolatni ham ta'minlaydi. Chunki shaffoflik, raqobat va ochiqlik bo'lgan joyda rivojlanish bo'ladi. Shu sababli har bir talaba, tadbirkor va fuqaroda birja madaniyatini shakllantirish mamlakatning kelajakdagi iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmurodov.A – «Bozor iqtisodiyoti vs uning infratuzilmasi»
2. «Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda sug'urtaning roli: tendensiyalar, muammolar va yechimlar»- Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami.

INNOVATIVE  
ACADEMY